

G'O'ZANI CHILPISH MUDDATI VA USULLARI

R.M.Komilov

Farg'ona davlat universiteti

Abduraxmon Sobirov

Farg'ona davlat universiteti b,f,n.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7423834>

Annotatsiya. Respublikamiz va dunyoning paxta yetishtiruvchi davlatlaridagi juda mashhur olimlar Bushuyev M.M. (1913), Shreder R.R. (1913), Makarov A.F. (1930), Lisenko T.D. va boshqalar chilpishning ahamiyati yuqoriligini, paxta xosili va tola sifatini oshirishini aniqlagan. Akademik Lisenko T.D. (1936) chilpish natijasida g'o'zaning o'sishi va rivojlanishi yaxshilanadi va oziqa moddalarning xosil shoxlariga qayta taqsimlanishi xisobiga xosil shonalari va tugunchalarining to'kilishi kamayadi deb ta'kidlagan.

Kalit so'zlar: tadqiqot natijalari, g'o'za chilpish, agrotexnika, rivojlanish, xosildorlik.

ПЕРИОД И СПОСОБЫ ЧЕКАНКИ ХЛОПКА

Аннотация. Очень известные ученые нашей республики и хлопководческих стран мира Бушуйев М.М. (1913), Шредер Р.Р. (1913), Макаров А.Ф. (1930), Лысенко Т.Д. и другие обнаружили, что важность очистительной очистки высока, она повышает качество хлопка и волокна. Академик Лысенко Т.Д. (1936) установили, что рост и развитие хлопчатника улучшаются в результате выбраковки, а осыпание сот и узлов уменьшается за счет перераспределения питательных веществ по ветвям культуры.

Ключевые слова: результаты исследований, хлопкоочистительное производство, агротехника, развитие, продуктивность.

PERIOD AND METHODS OF MINTING COTTON

Abstract. Very famous scientists of our republic and cotton-growing countries of the world Bushuev M.M. (1913), Schroeder RR. (1913), Makarov A.F. (1930), Lysenko T.D. and others found that the importance of cleaning is high, it improves the quality of cotton and fiber. Academician Lysenko T.D. (1936) found that the growth and development of cotton improved as a result of culling, and shedding of combs and knots was reduced due to the redistribution of nutrients along the branches of the crop.

Keywords: research results, cotton ginning, agricultural technology, development, productivity.

O'tkazilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida O'zbekistonda 1939 yildan boshlab Respublikamiz xukumatining maxsus qarori asosida chilpish g'o'za agrotexnikasida bajarilishi lozim bo'lgan muxim tadbir sifatida kiritilgan.

Barcha agrotexnik tadbirlar qatori g'o'zani chilpishni xam uz vaktida va sifatli o'tkazish g'o'zaning maqbul o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi, xosil elementlarining shakllanishi va ko'saklar paydo bo'lishini kuchaytiradi, shona, gul va tugunchalar to'kilishi kamayadi, ko'saklarning soni va vazni ortib, erta ochiladi, yuqori paxta xosili, sifatli tola va chigit yetishtiriladi.

G'o'zani chilpish muddatlarning paxta xosiliga bo'lgan ta'siri.

Chilpish o'z vaqtida, to'g'ri va sifatli o'tkazilishi natijasida xosil elementlari kam to'kiladi, g'o'zaning sishi va rivojlanishi 7-8 kundan 10 kungacha tezlashadi, xosildorlik 3-5 sentnerdan 8 sentnergacha oshadi, paxtani 1-2 terimda to'liq terib olish bilan birga tola sifati 25-

30 foizga yaxshilanadi, chigit vazni xam ortadi, moydorligi 1-2 foizga oshadi, kuzgi boshokli ekinlarni maqbul muddatlarda ekishga kulay sharoit yaratiladi.

G'ozani qo'lda chilpish. G'ozani chilpish dalalarda qo'lda bajarilganda poyaning uch kismini 1-1,5 sm chimdib olish bilan amalga oshiriladi. qo'lda chilpishda qatnashadigan xar bir ishchida albatta fartuk takilishi, chimdib olingan guzaning uchki qismi daladan tashqariga olib chikilib, yerga ko'mib tashlanishi kerak. Shunday kilinganda g'ozaning uchidagi ko'sak qurtining tuxumlari xam daladan tashkariga olib chikib ketiladi. G'ozani qo'lda chilpish birinchi bosqichda bosh poyasining eng uch qismi yulib olinib, ikkinchi bosqichda 7-8 kundan keyin past bo'yli g'ozalar va yon shoxlarining uchi chilpib olinadi. Agar yon shoxlarida chilpish o'tkazilmasa, ular tez o'sib rivojlanadi va katorlari birlashib ketadi, soya berib, pastki kavatdagi ko'saklar yetilmaydi, ko'sagi kichrayib, ayrimlari chiriydi.

Shu boisdan xar bir fermer xo'jaligi raxbari va mutaxassislari qo'lda chilpishni boshlashdan oldin dalada ishlovchilarga tushuntirish ishlarini olib borishi kerak va chilpish jarayonida esa nazoratni kuchaytirishlari kerak.

G'ozani mexanik usulda chilpish qo'l mexnatini yengillashtiradi. Bunda traktor kultivatori oldiga osilgan maxsus moslama 80-100 sm balandlikda rostlanib, kultivatsiya davrida g'ozaning yuqori qismini maxsus pichoqlari yordamida kesib ketiladi. Bu usulda xam bo'yi past rivojlangan xamda yon shoxlarini yana kayta chilpish talab etiladi. Aks xolda g'ozalar qatorlari tezda birlashib ketadi va xavo almashinuvi yomonlashib, pastki qavatdagi ko'saklarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mexanizm yordamida chilpish vaqtida baravj rivojlangan g'ozalar tuplaridagi yetilgan shona, gul va tugunchalar pichoq tigiga uchrab, kesilib ketadi va xosil nisbatan kamayishi mumkin.

G'ozani kimyoviy usul bilan chilpish g'ozaning xosil to'plashi va maqbul o'sishi uchun samarali va qulay xisoblanadi. Kimyoviy chilpish uchun tavsiya etilgan dorilar sug'orishdan 5-7 kun avval yoki 5-7 kun keyin OVX va boshqa purkagich moslamalarda gektariga 250-300 litr suvga aralashtirilib sepiladi.

Kimyoviy chilpishda qo'lda chilpishdagi og'ir qul mexnatiga barxam beriladi, mexanizmida chilpishga nisbatan yoqilg'i sarfi 5-6 marta kamayadi.

Respublikamiz viloyatlarida Sojean, Entojean preparatlari g'ozalar vegetatsiyasi (shonalash, gullash, xosil tugish) davrida uch marta 15+45+90 g/ga meyorida ishlov berilsa yoki g'ozalarda 12-13 xosil shoxi to'planganda 100-110 g/ga meyorda, Dalpiks 1,0-1,5 liga, Piks 1,5-2,0 l/ga meyorlarda g'ozani sug'orishdan 5-7 kun avval yoki keyin sepilsa, qo'lda chilpishga xojat qolmaydi.

Andijon va Farg'ona viloyatlarida unumdorligi yuqori bo'lgan tuproqlarda g'ozalar navlari gektariga 90-100 ming tup kuchat sonida 13-14, o'rtacha unumdor tuproqlarda gektariga 100-110 ming tup sonida 12-13, unumdorligi past yerlarda gektariga 110-120 ming tup sonida 11-12 xosil shoxida chilpish o'tkazilsa, yer osti suvi yuza bo'lgan tuproqlarda xam 110-120 ming ko'chat qoldirilib parvarishlangan paykallarda 12-13 xosil shoxida chilpiladi. Ushbu viloyatlarda xam g'ozalar qo'shqator ekilgan bo'lsa, 10-11 xosil shoxi paydo bo'lganda chilpish o'tkazish kerak.

Chilpishning afzalligi va kamchilliklari afzalliklari:

O'z vaqtida to'g'ri va sifatli o'tkazilgan chilpish natijasida xosil elementlari kam to'kiladi, g'ozaning o'sishi va rivojlanishi 7-8 kunga tezlashadi, xosildorlik 5-8 s/ga va undan xam ko'pga oshadi, paxta sifati 25-30 % yaxshilanadi.

Chilpishdan keyin barcha zaruriy oziqa moddalar yuqorigi o'suv shoxlariga emas, balki xosil organlariga yo'naladi.

Chippish o'tkazilgan maydonlarda ko'saklar soni ko'payadi, paxta erta ochiladi, bitta ko'sakdagi paxtaning vazni ortadi.

G'ozaning ko'sak qurti bilan zararlanishi 50-60% kamayadi.

G'ozada defoliatsiya qilinganda barglari yaxshi to'kiladi.

Yuqori sortlarga ko'p paxta sotilib iktisodiy samaraga erishiladi.

Kamchilliklari:

Chilpish o'tkazilmasa yer osti sizot suvlari yaqin joylarda g'ozaga g'ovlab ketadi, erta o'tkazilsa bachkilab, shoxlab ketadi.

G'ozada shona, gul va tugunchalar (10 kunlikgacha bo'lgan yosh ko'saklar) to'kiladi va xosil 20-30% gacha kamayadi.

Paxta xosili 15-20% kamayib, pishib yetilishi 7-10 kungacha kechikadi, ko'saklar vazni va o'lchami kichrayadi.

G'ozaga serbarg bo'lib, ko'saklarning ochilishi kechikadi, xashoratlarni o'ziga jalb etishi kuchayadi, defoliatsiya samarasi pasayadi.

Chilpish sifatli o'tkazilgan maydonlarda paxta xosili mo'l, sifati yuqori bo'lishi bilan birga terimni yog'in sochinli kunlarga koldirmay qisqa muddatda yakunlash, maxsulotni yuqori navlarga sotish, iqtisodiy samaraning ortishiga olib keladi, kuzgi g'alla ekinlarini o'z muddatida ekilishi ta'minlanadi.

REFERENCES

1. Хайдаров Мавлон Машрабович, Юлдашев Гулом. Биоэнергетика почвенных незаменимых аминокислот в орошаемых сероземах// Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. – Наманган, 2022. –№ 2. -С. 126-130.
2. Turdaliev, A., Haydarov, M., & Musaev, I. (2022). ПЕДОЛИТЛИ ТУПРОҚЛАРНИНГ АГРОНОМИК ХОССАЛАРИ. *Science and innovation*, 1(D6), 245-249.
3. Хайдаров, М. М., & Собиров, А. Г. (2022). ЭНЕРГЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АРОМАТИЧЕСКИХ, ДИАМИНОКАРБОНОВЫХ КИСЛОТ И ПРОЛИНА В ТЕМНЫХ СЕРОЗЕМАХ. *Science and innovation*, 1(D3), 43-47.
4. Isagaliev, M., Abakumov, E., Turdaliev, A., Obidov, M., Khaydarov, M., Abdulkhakimova, K., ... & Musaev, I. (2022). *Capparis spinosa* L. Cenopopulation and Biogeochemistry in South Uzbekistan. *Plants*, 11(13), 1628.
5. Haydarov, M., Yusupova, Z., Sayramov, F., & Rahmonova, O. (2022). Lamiaceae oila vakillarining biz bilgan va bilmagan dorivorlik xususiyatlari. *Science and innovation*, 1(D7), 89-94.
6. Хайдаров, М. М. (2022, November). ЛАБГУЛДОШЛАР ОИЛА ВАКИЛЛАРИНИНГ ЭФИР МОЙИГА БОЙ БЎЛГАН БАЗИ ТУРЛАРИНИНГ МОРФОЛОГИЯСИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 8, pp. 16-20).
7. Haydarov, M., Sayramov, B., Rahmonova, O., & Eshnorova, J. (2022). TARKIBIDA MONOSIKLIK MONOTERPENLAR BO'LGAN EFIR MOYLAR VA DORIVOR O'SIMLIKLAR. *Science and innovation*, 1(A7), 337-343.

8. Nizomitdinova, M., Haydarov, M., & Musayev, I. (2022). NEFT MAHSULOTLARINI TUPROQ QOPLAMINING ASOSIY XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI. *Science and innovation, I(D8)*, 31-36.
9. Turdaliyev, A., Haydarov, M., Siddiqova, G., & Sodiqova, M. (2022). DORIVOR VALERIANA O'SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI. *Science and innovation, I(D8)*, 26-30.
10. Turdaliyev, A., Haydarov, M., Ne'Matova, D., & Aliyeva, M. (2022). VALERIANA OFFICINALIS LO 'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation, I(D7)*, 468-472.
11. Хайдаров, М., & Сайрамов, Ф. (2022). ЛАБГУЛДОШЛАР ОИЛА ВАКИЛЛАРИНИНГ ТИББИЁТДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА КИМЁВИЙ ТАРКИБИ. *Science and innovation, I(D8)*, 262-270.
12. Turdaliyev, A. T., Darmonov, D. Y., Teshaboyev, N. I., Saminov, A. A., & Abdurakhmonova, M. A. (2022, July). Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1068, No. 1, p. 012047). IOP Publishing.
13. Teshaboyev, Nodirbek, et al. "ECOLOGICAL CULTURE IS A DEMAND OF TODAY." Конференции. 2021.
14. Эшпулатов, Ш. Я., Тешабоев, Н. И., & Мамадалиев, М. З. У. (2021). ИНТРОДУКЦИЯ, СВОЙСТВА И ВЫРАЩИВАНИЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЕ СТЕВИЯ В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОГО ДОЛИНЫ. *Евразийский Союз Ученых, (2-2 (83))*, 37-41..
15. Тешабоев, Н. И., & Бобоев, Б. К. (2022). Влияние качества зернопроизводства на эффективность урожая. *Science and innovation, I(D3)*, 31-34.
16. Teshaboyev, N., Muqimov, Z., & Abduraximova, M. (2021, July). THE EFFECT OF DEEP PROCESSING ON COTTON YIELD BETWEEN COTTON ROWS. In *Конференции*.
17. Тешабоев, Н., Мамадалиев, М., Абдуллаева, Г., & Матмисаева, Ш. (2021, August). FIGHT AGAINST THE SPIDER IN THE FIG: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1400>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
18. Кодиров, Ж., Тешабоев, Н., Тешабоева, М., Абдуллаева, Г., & Мухторов, Ш. (2021, August). PRODUCTION POSSIBILITIES OF AUTUMN WHEAT VARIETIES: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1405>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
19. Nodirbek, T., Muhammadkarim, M., & Zohidjon, M. (2021). Natural screen sanded sands field water capacity. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9)*, 1080-1082.
20. Жамолов, Р., & Абдуллаева, Г. Х, айдарова, Н., & Тешабоев, Н.(2021, August). In *THE ROLE OF WATER AND SALT IN THE LIFE OF BEES: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1>* (Vol. 1334).
21. Хайдаров, J., Тешабоев, N., Мамадалиев, M., & Voxobova, S. (2021, July). QUARANTIC FACILITIES OF PLANTS IN GREENHOUSES AND WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF FIGHTING AGAINST THEM. In *Конференции*.

22. N Teshaboyev, M Teshaboyeva, Z Sheraliyeva... (2022) *KUZGI BUG 'DOYNI ASRNAVI HOSILDORLIGIGA URUG 'EKISH MUDDATLARINI TA'SIRI - Science and innovation, 1/122-125*
23. Турдалиев А. Т., Аскарлов К. А., Мамажонов Г. Г. У. АГРОЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ГИДРОМОРФНЫХ ПОЧВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ ФЕРГАНЫ //В журнале представлены научные обзоры, статьи проблемного и научно-практического характера. – 2022. – С. 66.
24. Turdaliev, A. T., Darmonov, D. Y., Teshaboyev, N. I., Saminov, A. A., & Abdurakhmonova, M. A. (2022, July). Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1068, No. 1, p. 012047). IOP Publishing.
25. Тешабоев, Нодирбек Икромжонович; Сиддикова, Гулзира Сайдулло Кизи; Комилов, Хусниддин Акрамжон Ўғли ХАРАКТЕРИСТИКА СКЕЛЕТНОСТИ ДЕФЕЛИРОВАННЫХ СВЕТЛЫХ СЕРОЗЕМОВ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ПУТИ К ИХ УЛУЧШЕНИЮ. - ООО «Science and innovation»
26. Эшпулатов Ш., Тешабоев Н., Мамадалиев М. INTRODUCTION, PROPERTIES AND CULTIVATION OF THE MEDICINAL PLANT STEVIA IN THE CONDITIONS OF THE FERGHANA VALLEY //EurasianUnionScientists. – 2021. – Т. 2. – №. 2 (83). – С. 37-41.
27. Тешабоев, Нодирбек Икромжонович; Бобоев, Бахромжон Кенжаевич. ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ЗЕРНОПРОИЗВОДСТВА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ УРОЖАЯ. ООО «Science and innovation»2022. – 31-34с.
28. Тешабоев, Нодирбек; Абдурахимова, Мухабатхон; Эшпулатов, Алишер; Махкамова, Дилёра. ECOLOGICAL CULTURE IS A DEMAND OF TODAY:// RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES. - 2021.
29. Юлдашев Г., Турдалиев А. Геохимические особенности циклических элементов в агроландшафтах пустынь //Аграрная наука. – 2014. – №. 1. – С. 10-12.
30. Жамолов, Р., Абдуллаева, Г., Хайдарова, Н., & Тешабоев, Н. (2021, August). THE ROLE OF WATER AND SALT IN THE LIFE OF BEES: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1334>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
31. Teshaboyev, N., Abduraximova, M., Eshpulatov, A., & Mahkamova, D. (2021, July). ECOLOGICAL CULTURE IS A DEMAND OF TODAY. In *Конференции*.
32. Тургунов, А., Тешабоева, М., & Мамажонова, Н. (2014). ПОТРЕБНОСТЬ РАСТЕНИЙ В БИОПРОДУКТАХ. In *БИОРАЗНООБРАЗИЕ И РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ* (pp. 126-128).
33. Teshaboyev, N., Muqimov, Z., & Abduraximova, M. (2021, July). THE EFFECT OF DEEP PROCESSING ON COTTON YIELD BETWEEN COTTON ROWS. In *Конференции*.
34. Тешабоев, Н., Мамадалиев, М., Абдуллаева, Г., & Матмисаева, Ш. (2021, August). FIGHT AGAINST THE SPIDER IN THE FIG: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1400>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
35. Nodirbek, T., Muhammadkarim, M., & Zohidjon, M. (2021). Natural screen sanded sands field water capacity. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 1080-1082.

36. Турсунов, С., Тургунов, А., Тешабоева, М., & Ашуров, Х. (2014). ОПЫТ ВЫРАЩИВАНИЯ ДВУХ УРОЖАЕВ С ОДНОГО ПОЛЯ ЗА ОДИН ГОД. In *БИОРАЗНООБРАЗИЕ И РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ* (pp. 70-42).
37. Кодиров, Ж., Тешабоев, Н., Тешабоева, М., Абдуллаева, Г., & Мухторов, Ш. (2021, August). PRODUCTION POSSIBILITIES OF AUTUMN WHEAT VARIETIES: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1405>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
38. Кодиров, Жалолдин, et al. "PRODUCTION POSSIBILITIES OF AUTUMN WHEAT VARIETIES: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1405>." *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES*. No. 18.06. 2021.
39. Kodirov, Jaloldin, et al. "PRODUCTION POSSIBILITIES OF AUTUMN WHEAT VARIETIES." *Конференции*. 2021.
40. Тургунов, А., М. Тешабоева, and Н. Мамажонова. "ПОТРЕБНОСТЬ РАСТЕНИЙ В БИОПРОДУКТАХ." *БИОРАЗНООБРАЗИЕ И РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ*. 2014.
41. Турсунов, С., Тургунов, А., Тешабоева, М., & Ашуров, Х. (2014). ОПЫТ ВЫРАЩИВАНИЯ ДВУХ УРОЖАЕВ С ОДНОГО ПОЛЯ ЗА ОДИН ГОД. In *БИОРАЗНООБРАЗИЕ И РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ* (pp. 70-42).
42. Тургунов, А., Тешабоева, М., & Мамажонова, Н. (2014). ПОТРЕБНОСТЬ РАСТЕНИЙ В БИОПРОДУКТАХ. In *БИОРАЗНООБРАЗИЕ И РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ* (pp. 126-128).
43. Турсунов, С., Тургунов, А., Тешабоева, М., & Ашуров, Х. (2014). ОПЫТ ВЫРАЩИВАНИЯ ДВУХ УРОЖАЕВ С ОДНОГО ПОЛЯ ЗА ОДИН ГОД. In *БИОРАЗНООБРАЗИЕ И РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ* (pp. 70-42).
44. Kodirov, J., Teshaboyev, N., Teshaboyeva, M., Abdullayeva, G., & Muxtorov, S. (2021, July). PRODUCTION POSSIBILITIES OF AUTUMN WHEAT VARIETIES. In *Конференции*.